

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10862938>

O'QUVCHILARGA TIL O'RGATISHDA SAMARALI USULLARDAN FOYDALANISH

Rahmonaliyeva Nigora Kamoldinovna

Quva kasb-hunar maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Ahmadjonova Farzona Akramjon qizi

Farg'onan davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Til o'rganish nafaqat fikrlash jarayonining muvozanatini rivojlantirishga yordam beradi, balki boshqa fanlarni o'rganish uchun ham tayanch vazifasini bajara oladi. Ushbu maqolada til va o'rgatishning oson va samarali usullari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Metod, didaktik o'yinlar, psixologik to'siqlar, xulosalovchi o'yinlar, rag'batlantiruvchi o'yinlar.

АННОТАЦИЯ

Изучение языка не только помогает развить баланс мыслительного процесса, но и может служить основой для изучения других дисциплин. В этой статье рассказывается о языке и простых и эффективных методах обучения.

Ключевые слова: метод, дидактические игры, психологические барьеры, заключительные игры, стимулирующие игры.

ANNOTATION

Language learning not only helps to develop the balance of the thinking process, but can also serve as the basis for studying other disciplines. This article will talk about language and easy and effective methods of teaching.

Keywords: method, didactic games, psychological barriers, inference games, incentive games.

Kirish. Jamiyatimizdagi ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar xorijiy tillarni o‘rganishda samarador usullardaan keng foydalanishni taqozo etmoqda. Shuning uchun ham so‘nggi yillarda tillarni o‘qitishda yangi usullarni izlab topish va ulardan kengroq foydalanish ehtiyojga aylanib ulgurgan.

Respublikamiz viloyatlarida tashkil qilingan til o‘rgatish markazlarida chet tillarini o‘qitishning turli xil usullaridan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Til o‘rgatish markazlarida chet tillarini o‘qitishda o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiquvchi muammolarni bartaraf qilish lozim.

Birinchidan, har bir o‘rganuvchining kundalik hayotida eng ko‘p qo‘llaniladigan mavzu va shunga o‘xshash materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, chet tilini o‘rganayotgan o‘quvchilarning maqsadlariga qarab guruhlarga ajratish zarur. Bu o‘qish faoliyati, guruh bo‘lib ishlash uchun katta ahamiyatga ega.

Uchinchidan, o‘quvchilarning bilim darajasiga qarab guruhlarga ajratish ham ayni muddao. Chunki bu ulardagi psixologik to‘siqlarni oldini oladi. Psixologik to‘siqlar deganda tortinchoqlik, darsda o‘rtoqlari oldida savolga to‘g‘ri javob bera olmaslik, hayajon kabilar nazarda tutiladi.

Bundan tashqari, chet tillarini o‘rgatishda qiziqarli metodlardan foydalanish ham yuqori natija beradi. Chunki o‘yin faoliyati orqali bizning miya faoliyatimizda obrazli xotira paydo bo‘ladi. Masalan, so‘zlarni turli o‘yinchoq va faoliyatlarga bog‘lab yod olinsa, xuddi shu narsalarni ko‘rganda ularga bog‘liq so‘z yodga olinadi. Bu xotirani charxlashda asosiy rol o‘ynaydi

Chet tili o‘rgatishning samaradorligi o‘qituvchining o‘qitish metodlarini mukammal bilishi, metodni to‘g‘ri tanlay olishi va ularning har birini o‘z o‘rnida qo‘llay olishiga bog‘liq. Chet tilini o‘qitishning natijadorligi juda ko‘p omillar bilan chambarchas bog‘langan. Shubhasiz, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari va o‘quv imkoniyatlarini hisobga olish, chet tili ta’limining mazmuni va maqsadiga muvofiq keladigan topshiriqlar tizimi hamda metodlarini to‘g‘ri belgilash, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida pedagogik hamkorlikning o‘rnatalishi, darsda ishga solinadigan

vositalarning maqsadga muvofiq tanlanishi singarilarning barchasi samaradorlikni ta'minlash bilan aloqadordir.

O'rganilganlik darajasi. Metod so'zi qanday ma'noni ifodalaydi? Metod yunoncha so'z bo'lib, "tadqiqot" yoki "bilish yo'li" ma'nolarini ifodalaydi. Bu tushuncha falsafiy va didaktik ma'nolarga ega.

Falsafiy ma'noda "metod" tushunchasi tabiat va jamiyat hodisalarini kuzatish hamda voqelikka ilmiy nuqtayi nazardan yondashish demakdir.

Tillarni o'rganishda foydalaniладиган о'ин турларини ко'риб чиқамиз.

1. Guruh bo'lib ishslash uchun sog'lom muhitni tashkil etuvchi o'yinlar.
2. Umimiy qiziqishlarni aniqlashga qaratilgan o'yinlar.
3. Guruhning birligini ta'minlovchi o'yinlar.
4. Rag'batlantiruvchi o'yinlar.
5. Xulosalovchi o'yinlar.

Umumiy qiziqishlarni aniqlashga yo'naltirilgan o'yinlar. Bu kabi metoddan foydalanimanda guruhga yangi qo'shilgan a'zolarning yangi sharoitga moslashishi va umumiy qiziqishlarini o'rtoqlashishi kabi ijobiy yutuqlarga erishiladi.

Guruhning birligini qo'llab-quvvatlovchi o'yinlar. Ushbu metodlar guruhni jipsligini ta'minlaydi, shu bilan birga o'zaro munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi.

O'zaro bog'lovchi o'yinlar yordamida turli tushunchalarni bir-biriga oson bog'lash, bir mavzudan ikkinchi mavzuga qiyinchiliklarsiz, aksincha, qiziqish bilan o'tishni ta'minlanadi.

Rag'batlantiruvchi o'yinlar. Rag'batlantiruvchi metodlar orqali o'rquvchining darsdan zerikib qolmasligi, dars davomida "nafas rostlab olishi" ga yo'l ochib beriladi.

Xulosalovchi o'yinlar. Katta mavzularni o'rganishni yakunlash, egallangan bilim va ko'nikmalarini mustaxkamlashga, o'quvchilarning shaxsiy fikr va qarashlarini ravon bayon etishga asoslangan metod hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lif tizimida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar negizida amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanishga alohida e'tibor haratilmoqda [6, 33].

Didaktik o'yin o'rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi. Ayni vaqtda o'yin ham ijtimoiy faoliyat ko'rinishi sanaladi. Hozirgi vaqtda o'qituvchilar qo'lida barcha o'quv fanlari bo'yicha didaktik o'yinlarning ishlammalari mavjud, ayniqsa, boshlang'ich ta'lif bo'yicha yaratilgan o'quv dasturlarda turli didaktik o'yinlarning ro'yxati yetarli darajada ko'rsatilgan [1,106].

Ta'lifning globallashuvi ta'limiylar va rivojlantiruvchi xarakteriga ega va yo'nalishi jihatidan xilma-xil bo'lgan kompyuter o'yinlarining mактаб amaliyotiga jadal kirib kelishini ta'minlamoqda. Didaktik o'yinlar o'quvchilarga ijtimoiy-foydali mehnat hamda o'qish ko'nikmalarini faol o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning ahamiyati uning natijasi bilan emas, balki jarayonning mazmuni va uning kechishi bilan belgilanadi. O'yinlar bolalarni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ularning turli psixologik zo'riqishlarini kamaytiradi. Didaktik o'yinlardan foydalanilganda o'quvchilarning manfaatdor bo'lishlari ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan taqdirdagina ularni taqdirlash mumkin. Aksincha, metodik jihatdan puxta asoslanmagan hamda shunchaki tashkil etilgan o'yin ijobiy natija bermaydi.

Tahlil va natijalar. Quyida til o'rganishni yaxshilashda foydalanish mumkin bo'lgan zamonaviy metodlarni ko'rib chiqamiz.

1. "Bosh harf" metodi. Bu o'yinda o'quvchilarga biror harfga oid so'z topish vazifikasi beriladi.

Bunda pedagog xohishiga ko'ra vaqt belgilangan. Belgilangan vaqt davomida shu harf bilan boshlanuvchi so'zlarni yoddan yozishi lozim. Eng ko'p so'z yozgan o'quvchi g'olib hisoblanadi.

Bu o‘yin bolalarning yod olgan so‘zlarini takrorlashga, xotirani charxlashga va tezkorlikka da’vat qiladi.

2. “To‘g‘ri-noto‘g‘ri” metodi. Bu metodda o‘qitivchi har bir o‘quvchining oldiga oq va qora kartochka beradi. O‘qituvchi o‘tilgan mavzulardan to‘g‘ri va noto‘g‘ri fikrlarni tuzib keladi va tez o‘qiydi. Ulardan to‘g‘ri fikrlarga oq va noto‘g‘ri fikrlarga qora katochkani ko‘rsatishlarini tushuntiradi. Shu tariq o‘yin davomida eng ko‘p ball to‘plagan o‘quvchi rag‘batlantiriladi.

Bu o‘yin ta’lim sifati samaradorligini oshiradi. O‘quvchilarining fanga qiziqishini oshiradi.

3. “Kimilicingni top” o‘yini. Bu o‘yinda bir o‘quvchi doskaga chiqadi, uning boshiga qog‘ozdan yasalgan toj kiydiriladi va unga darsga oid atama yoziladi. Boshqa o‘quvchilar navbat bilan u atamaning ta’riflaydi. Doskadagi o‘quvchi bu sifatlardan foydalanib tojga nima deb yozilganini topishi kerak bo‘ladi.

4. “Yangi so‘z yasash” o‘yini. Bu o‘yinda o‘quvchilar guruhga bo‘linib olishadi. Har bir jamoaga 1tadan darsga oid uzunroq so‘z beriladi va shu so‘zdan boshqa so‘z chiqarish vazifasi beriladi. Bu o‘yinda ham o‘qituvchi istagiga ko‘ra vaqt belgilanadi. Eng ko‘p so‘z topgan jamoa g‘oliblikni qo‘lga kiritadi.

Bu o‘yin orqali bolalarda darsga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish mumkin. Chunki ular mag‘lub bo‘lmaslik uchun imkoniyatlari boricha harakat qiladilar.

Bu o‘yin qiziqarli bo‘lgani uchun o‘quvchilarni zeriktirmaslik bahonasida darsni takrorlab olishga imkoniyat yaratadi.

Xulosa. Darsda metodlardan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchining o‘rtasida erkinlik, hurmat o‘rnatish bilan bir qatorda, ta’lim sifatiga katta hissa qo‘shadi. Bunday metodlardan foydalanishning yana bir foydali jihat shundaki, bir metod yordamida mavzu mazmuni to‘laroq ochib berilsa, boshqasi uni ijobjiy o‘zlashtirishga imkon tug‘diradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – T.: Iqtisod-moliya, 2009.
2. Xalikov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. – T, Iqtisod moliya, 2012.
3. M.Xusanova., F.Ahmadjonova. DAVLAT TILINING O'QITILISHIDA FANLARARO INTEGRATSIYA “Davlat tilini rivojlantirishda til siyosatining o‘rni” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 307-309.
4. KHUSANOVA M & KHUSANOVA M. ROLE OF OCCASSIONAL UNITS IN FARIDA AFRUZ’S IDIOSTYLE. Thematics Journal of Education Impact Factor (UIF-2020):7.528 Impact Factor (IFS-2020):7.433: <https://doi.org/10.5281/zenodo.6467338>, P-63-69 12.04.2022.
5. Xusanova, M.A. The use of archaism in the works of Farida Afroz. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 04, volume 96 published April 20, 2021. Soi: <http://s-o-i.org/1.1TAS-04-96-51> Doi <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> Scopus ASCC:1208.
6. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.